

TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

**Burxonov Rasul Ramilovich¹, Ismailov Janibek Aktamovich²,
Mavlonov Ergash Dusmurod o'gli²**

*Jizzax davlat pedagogika instituti, Texnologik ta'lif kafedrasи stajyor-o'qituvchisi
Jizzax davlat pedagogika institute 2-bosqich magistrantlari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda amalga oshirilayotgan raqamli texnologiyalarini ta'lif muassasalarida jorish etishning pedagogik va psixologik asoslariga oid mulohazalar keltirlgan.

Kalit so'zlar: axborot kommunikatsiya, raqamli texnologiyalar, o'quv jarayonini tashkil etish, ta'lif muassasalarida axborotlashtirish, hujjatlar elektron almashuvi, mantiqiy tartiblash, mantiqiy tizimlashtirish, ta'lifni raqamlashtirishning mazmuni.

Аннотация: В статье содержится отзыв о педагогических и психологических основах современного внедрения цифровых технологий в образовательных учреждениях.

Ключевые слова. информационная коммуникация, цифровые технологии, организация учебного процесса, информатизация в образовательных учреждениях, электронный обмен документами, логическая упорядоченность, логическая систематизация, содержание оцифровки образования

Annotation: The article contains a review of the pedagogical and psychological foundations of the modern implementation of digital technologies in educational institutions.

Keywords. information communication, digital technologies, organization of the educational process, informatization in educational institutions, electronic exchange of documents, logical ordering, logical systematization, content of digitization of education

Ta'lif tizimini isloh qilishning muhim yo'naliшlaridan biri – axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar bilan ta'lif jarayonini tizimli integrasiyalash va uni boshqarish hisoblanadi. Islohotlar jarayonida bosh vazifa qilib o'quv jarayonini tashkil etish, uning mazmunini tubdan yangilash, raqamli texnologiyalarini qo'llash, kompyuterlashgan muhitda o'qituvchining pedagogik faoliyati va o'quvchilarning bilim olish jarayonini tashkil etish belgilanadi.

Ta'lif jarayonlariga axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarini qo'llashda avvalo ta'lif muassasalarida axborotlashtirishni tashkil etish, ya'ni barcha o'quv, ma'muriy va xo'jalik xizmatlarini, kutubxona va boshqaruv bo'limlarini yagona tarmoqqa birlashtirish, ularning Internet tizimiga chiqish imkoniyatlarini yaratish, ta'lif muassasasida o'quv jarayonini nazorat qilish, hujjatlar elektron almashuvini hamda axborot texnologiyalari negizida maxsus o'quv-metodik materiallarni yaratish orqali o'quvchilarning mustaqil ta'lif faoliyatini tashkil etish kabi vazifalarni amalga oshirish zarur bo'ladi. Hozirda

bunday vazifalarni bajarish raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali ijobiy hal etiladi. Ta'lismuassasasi yoki ma'lum fanning yagona axborot - ta'lismuhitini rivojlantirishning muhim yo'naliishlaridan biri o'quv jarayonida axborot va telekommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Axborot va telekommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchilarga axborot-ta'lismu resurslaridan foydalanishni yengillashtiradi. Raqamli texnologiyalarni qo'llash axborotlarni mantiqiy tartiblash va tizimlashtirishga yordam beradi.

Yagona ta'lismuhitini yaratish va o'quvchilarning samarali bilim olishlarini tashkil etish o'qituvchining tayyorgarligining yuqori talablar darajasida bo'lishi, dars mazmunining maqsadga muvofiqligi, axborotlarning tizimlashtirilishini ta'minlash axborot-ta'lismuhitini yaratish va uni rivojlantirishda tizimli yondashuvni amalga oshirishni shart qilib qo'yadi. Ta'lismi raqamlashtirishning mazmunini birinchidan, axborot va kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish orqali o'quvchilarga ta'lismuhitini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirish va qo'shimcha ta'lismuhitini resurslaridan foydalanishni tashkil etish orqali ta'lismuhitini oshirish imkoniyatlariga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quv jarayonida mustaqil ta'lismuhitini salmog'ini ortishi yangi ta'lismuhitini foydalanishni taqozo etadi.

Ta'limga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, eng avvalo, pedagogik-psixologik talablarga javob berishi kerak. Pedagogik va psixologik talablarga uyg'un bo'lgan raqamli texnologiyalarni qo'llash uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

- taqdim etilayotgan axborot resurslari ishonchli, tegishli fanning hozirgi zamon holatiga mos, tizimli va ketma-ket, ko'rgazmali, amaliyot bilan bog'langan bo'lishi;
- o'quv materiallari ilmiyligi va qabul qilinishi osonligining o'zaro optimal variantida berilishi;
- o'quv-metodik materiallarining bayon etilishi shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Axborot-ta'lismuhitini dasturlarning mazmuniga mos bo'lishi bilan birga o'quvchilarda zarur ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi topshiriqlar va vazifalardan tashkil topishi, o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar hajmini aniqlashi, ma'lum bir mantiqiy tizimda taqdim etilishi, uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga mos kelishi, nihoyat, tizimlilik tamoyiliga javob bera olishi zarur.

Shuningdek, ta'lismuhitini o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga mos bo'lishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Ta'limda axborot va raqamli texnologiyalarni qo'llash jarayoni ma'lum talablarga javob bera olishi zarur. O'QUVCHILARga dars mazmuni yuzasidan joylashtirilgan resurslarning tarkibini ko'rgazmali namoyish etishi, biridan ikkinchi materialga mantiqiy va tezkor o'tishni ta'minlashi lozim.

Taqdim etilayotgan axborot-ta'lim resurslari mustaqil ta'lim yoki o'tilgan darsni mustahkamlash uchun topshiriqlarni, o'zlashtirilgan bilimlarni tekshirish uchun test sinovlarini, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni, bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan mashqlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

Ta'lim mazmuni uchun multimedia materiallarini tanlashda ularning axborot-mazmuni, tuzilma-tarkibi, uzviyligi va axborotlarni taqdim etish shakllariga e'tibor qaratish kerak. Multimedia materiallari axborotlarning mustaqil manbai sifatida resurslarni oson o'zlashtirishga, ularning mazmunini ochib berishga xizmat qiladi.

Texnologik jihatdan ta'limda axborot va raqamli texnologiyalarni qo'llash quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- gipermurojaatlarning mavjudligi;
- hamkorlikdagi faoliyatni ta'minlashi;
- o'zida mavjud resurslarni boshqarishi;
- foydalanuvchilarni boshqarishi;
- nazorat olib borishi;
- bilimlarni boshqarishi;
- kommunikasiyani ta'minlashi;
- qidiruvni ta'minlashi;
- ruxsat etilmagan kirishdan barcha resurslarni himoyalashi, ya'ni axborot xavfsizligini ta'minlashi;
- barcha o'quvchilar uchun qulay usullar orqali axborotlardan foydalanish imkoniyatini yaratishi;
- o'quv materialining mazmuni izchil va mantiqiy ketma-ketlkni buzmagan holda j0ylashtirilishi zarur.

Ta'lim berishda axborot va raqamli texnologiyalarni yaratish va qo'llash quyidagi kontseptual tamoyillarga ega bo'lishi lozim deb hisoblaymiz:

1. Maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili. Axborot va raqamli texnologiyalar orqali fan bo'yicha axborot-ta'lim resurslarini taqdim etadi va ta'lim oluvchilar, ta'lim muassasasi, ta'lim xizmatlari buyurtmachilari, ta'limni boshqarish organlari uchun axborot-ta'lim manbai bo'lib xizmat qiladi.

2. Integrasiya tamoyili. Axborot va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali pedagogik ta'lim muassasasining integrallashgan axborot-ta'lim resurslari

yagona manzilda joylashtiriladi, shuningdek, ta'lim muassasasi resurslariga alohida murojaat yo'li ham ajratib ko'rsatiladi.

3. To'laqonlilik tamoyili. Axborot va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sohasi bo'yicha o'quv-me'yoriy, metodik hujjatlar, ilmiy faoliyat, tarbiyaviy faoliyati tashkil etish to'laqonliligi ta'minlaydi.

4. Yaxlitlik tamoyili. Axborot va raqamli texnologiyalar markazlashtirilgan boshqaruv orqali axborot-ta'lim resurslarini taqdim etadi, resurslarini rivojlantirish pedagogik ta'lim muassasalarining resurslarini tahrirlash va joylashtirish yagona tizim asosida amalga oshiriladi.

5. Ochiqlik tamoyili. Axborot va raqamli texnologiyalar pedagogik ta'lim sohasi bo'yicha ma'lumotlarni ochiq taqdim etish tizimini yaratadi va birinchi navbatda, pedagogik axborot-ta'lim resurslarining ochiqligini ta'minlaydi.

Axborot va raqamli texnologiyalar joriy etish quyidagi 3 bosqichni o'z ichiga oladi:

- mazmun bosqichi – bu bosqichda Axborot va raqamli texnologiyalarni qo'llashning axborot-ta'lim resurslarini shakllantirish va uning axborot ta'minoti mazmuni yaratiladi;

- tashkiliy bosqich – bu bosqichda Axborot va raqamli texnologiyalarni qo'llashning texnik jihatlari bilan bir qatorda, foydalanuvchilarning toifalarini aniqlashtirish, mavjud resurslarni tizimlashtirish va yangilab borish mexanizmlarini ishlab chiqish, ta'lim muassasalaridagi mavjud resurslarni integrasiyalash, masofaviy ta'limni tashkil etish, axborot-ta'lim resurslariga bo'lgan talabni aniqlash maqsadida axborot va raqamli texnologiyalari foydalanuvchilari bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil etish amalga oshiriladi;

- metodik ta'minot bosqichi – bu bosqichda axborot va raqamli texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini ishlab chiqish, maslahat xizmatlarini bajarish yo'lga qo'yiladi.

Yuqoridagi mulohazalar asosida quyidagi xulosaga kelindi. Ta'lim berishda axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni joriy etish o'quv jarayonida mustaqil ta'lim salmog'ini ortishi, yangi axborot-ta'lim resurslarining shakllanishi, ta'lim jarayonini optimallashuvi, intensivlashuvi, ta'lim jarayoni qatnashchilarining o'zaro aloqasini, ta'lim jarayonini ochiqligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A. Masofali o'qitish modellari va ularning sinflari. // Fizika, matematika va informatika jurnali. Toshkent, 2004. – № 5. –B. 50-56.

2. Begimkulov U.Sh. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik ta'limni tashkil etish //Pedagogik ta'lim jurnali. – Toshkent, 2004. – № 1. B. 25-27.

3. Yuldashev U., Raxmatullaeva Sh.K. Internet asoslari: o'quv qo'llanma. –

Toshkent, 2002. – 28 b.